

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

### Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

## Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)  
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)  
ORIPOV A. (O'zbekiston)

**Muharrir:**

Sheraliyeva J.

## Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,  
2022.

---

## TARIX

<b>Sh.Hakimova</b>	
O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari .....	113
<b>J.Bo'tayev</b>	
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar.....	118
<b>I.Bohodirov, B.Jurayev</b>	
Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim .....	123
<b>A.Yuldashev</b>	
Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
<b>B.Ataxanov</b>	
Mustaqillikning ilk yillarda o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlарining o'ziga xos xususiyatlari .....	136
<b>Sh.Husanova</b>	
Qadimgi Farg'onanening samoviy tulporlari .....	140
<b>N.Komilov</b>	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinnbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
<b>G'.Raxmonov</b>	
Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishniyaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
<b>O.Abdunosirova</b>	
Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida .....	155
<b>Z.Abdullayev</b>	
Turkistonda mol-mulk musodarasi va rekvizisiya .....	158
<b>S.Istrolova, G.Karimova</b>	
Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

---

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Z.Tashtemirova, E.Gizdulin</b>	
Lirk she'riyatning turga oid xususiyatlari .....	167
<b>N.Sidikova</b>	
Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari .....	173
<b>A.Eshdavlatova</b>	
Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandard isyoni ifodasi .....	177
<b>J. Xalliyev</b>	
Ogahiy tarixiy va lirk asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik .....	182
<b>E.Qurbanova</b>	
Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot .....	186

---

## TILSHUNOSLIK

<b>K.Yusupova</b>	
Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
<b>Yu.Shuxratova, A.Mamajonov</b>	
O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
<b>A.Yuldashev</b>	
So'z yasalishining kognitiv aspekti .....	198
<b>X.Dusmatov</b>	
O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
<b>N.Umarova, D.Madazizova</b>	
Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
<b>G.Majidova</b>	
Til darslarida madaniyatni qamrab olish .....	215
<b>L.Yo'idosheva</b>	
Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	220
<b>N.Mamajonova</b>	
Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish .....	224
<b>G.Isakova</b>	
"Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
<b>Z.Alimova</b>	
Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida .....	233
<b>И.Порубай</b>	
Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi .....	238

**MUSTAQILLIKNING ILK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING BELARUS RESPUBLIKASI BILAN  
SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**ХАРАКТЕРИСТИКА ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА С  
РЕСПУБЛИКОЙ БЕЛАРУСЬ В НАЧАЛЕ НЕЗАВИСИМОСТИ**

**CHARACTERISTICS OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS OF UZBEKISTAN WITH  
THE REPUBLIC OF BELARUS AT THE BEGINNING OF INDEPENDENCE**

Ataxanov Baxtiyor<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Ataxanov Baxtiyor

– Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada O'zbekiston va Belarusning 1991-2000 yillardagi savdo-iqtisodiy munosabatlari yoritilgan. O'zbekiston mustaqillikning ilk yillardan boshlab demokratik bozor iqtisodiyotiga o'tish va iqtisodiy jihatdan rivojlanish maqsadida dunyo mamlakatlari hamda sobiq ittifoqdosh mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni faol yo'lga qo'ydi. Sobiq ittifoqdosh davlatlardan Belarus Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni faol olib borishiga asosiy sabab sifatida ikki mamlakat o'rtaсидаги сanoat va ishlab chiqarish korxonalari bir-biri bilan bog'liqlik jihatlari bor edi. 1991-2000 yillarda O'zbekistondagi yirik sanoat va mashinasozlik korxonalari faoliyatini rivojlantirish va samaradorlik ko'satkichini oshirish uchun ham aynan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va faollashtirish muhim ahamiyatga ega edi.*

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются торгово-экономические отношения между Узбекистаном и Беларусью в 1991-2000 г. С первых лет независимости Узбекистан активно налаживал торгово-экономические отношения со странами и бывшими союзниками в целях перехода к демократической рыночной экономике и экономического развития. Основной причиной активного ведения торгово-экономических отношений с Республикой Беларусь со стороны бывших союзников стала взаимозависимость промышленных и производственных предприятий двух стран. В 1991-2000 годах важно было укрепить и активизировать сотрудничество по развитию деятельности и повышению эффективности крупных промышленных и машиностроительных предприятий Узбекистана.

**Abstract**

*This article covers trade and economic relations between Uzbekistan and Belarus in 1991-2000. From the first years of independence, Uzbekistan has actively established trade and economic relations with countries and former allies in order to transition to a democratic market economy and economic development. The main reason for the active conduct of trade and economic relations with the Republic of Belarus from the former allies was the interdependence of industrial and manufacturing enterprises between the two countries. In 1991-2000, it was important to strengthen and intensify cooperation to develop the activities and increase the efficiency of large industrial and machine-building enterprises in Uzbekistan.*

**Kalit so'zlar:** hamkorlik, eksport, import, saldo, iqtisodiy hamkorlik, hukumatlararo komissiya.

**Ключевые слова:** сотрудничество, экспорт, импорт, баланс, экономическое сотрудничество, межправительственная комиссия.

**Keywords:** cooperation, export, import, balance, economic cooperation, intergovernmental commission.

**Kirish**

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiatining teng huquqli subyektiga aylandi. Mustaqillik O'zbekiston uchun dunyo mamlakatlari bilan suveren tarzda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa yo'naliishlarda tashqi aloqalarni olib borish imkonini berdi. Tom ma'noda respublikada yashayotgan fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy va milliy manfaatlaridan kelib chiqib xalqaro tashkilotlar va jahon mamlakatlari bilan yaqin hamkorlik aloqalari olib borishni yo'lga qo'ydi.

Mustaqillikning daslabki yillarda O'zbekiston ma'muriy buyruqbozlik tizimiga asoslangan rejali iqtisodiyotdan voz kechib, demokratik tamoyillarga asoslangan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu maqsad yo'lida O'zbekiston o'z iqtisodiy tizimida bozor munosabatlarini erkinlashtirish, chet el bilan erkin savdo aloqalarini yo'lga qo'yish, horijiy investitsiyalarni keng jalb etish, xususiy mulkchilik sohasini keng yo'lga qo'yish, yirik sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish kabi muhim masalalarni samarali yo'lga qo'yishga kirishdi. Buning uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirish va albatta chet mamlakatlardan bilan hamkorlik shartnomalarni imzolash muhim ahamiyat kasb etardi.

## TARIX

O'zbekiston mustaqil bo'lgach rivojlangan davlatlar bilan tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni samarali olib borish bilan bir qatorda sobiq ittifoqdosh mamlakatlar bilan ham hamkorlik aloqalarini mustahkamlab bordi. Buning asosiy sababi sobiq ittifoq mamlakatlarining sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir sanoat korxonasida ishlab chiqariladigan mahsulotning turli qismlari ittifoq mamlakatlarining turli hududlarida ishlab chiqarilar edi. Shu nuqtai nazardan ham, O'zbekiston mamlakat ichidagi sanoat korxonalarining faoliyatini to'liq saqlab qolish va o'tish davrida mamlakat iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlash uchun ham aynan sobiq sovet mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini samarali olib borish muhim ahamiyatga ega edi. Qolaversa, ittifoqdosh mamlakatlarning barchasida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlar o'xshash ro'y berganligi uchun davlatlarning ko'pchiligi bilan aloqalarni saqlab qolishdan manfatdor edi.

### **2.Metodologiyasi:**

O'zbekiston Sobiq ittifoq davlatlaridan Bnlarus bilan diplomatik aloqalarni izchil olib bordi. 1991 yil dekabrdan O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi o'rtaida savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalariga tamal toshi qo'yilgan.[1] Savdo-iqtisodiy bitimlar va idoralararo tuzilgan kelishuvlarni hayotga joriy etish jarayonida ikki davlat ham o'z tabiy resurslari va iqtisodiy imkoniyatlariga tayanmoqda. 1991-1994 yillar oralig'ida ikki davlat o'rtaida 25 ta shartnomma va bitimlar imzolandi. Yana vazirlik va idoralar o'rtaida 17 ta kelishuv shartnomalari imzolandi. Bu shartnomalar ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada faollashtirish ularni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini berdi. Xususan, 1994 yil 21 yanvarda O'zbekiston va Belarus o'rtaidagi savdo aloqalari to'g'risida shartnomma imzolandi.[2] Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi bilan Belarus Respublikasi o'rtaidagi savdo munosabatlari erkin savdo tartibida amalga oshirilishi yo'iga qo'yilib, savdo munosabatlarda bojlarni belgilash va undirish tizimi tartibga solindi. Eksport va import salohiyatini oshirish maqsadida kelishuv asosida belgilangan bojlardan tashqari har-xil turdag'i yig'im va soliqlarni joriy qilmaslik qat'iy belgilandi.

### **3.Tadqiqot natijalari:**

Belarus Respublikasi Prezidenti A.Lukashenkoning 1994 yil 22 dekabrda O'zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida "O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi o'rtaida o'zaro mahsulot etkazib berish to'g'risida bitim" imzolandi. Bitimga muvofiq, ikki davlatning ichki ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni o'zaro kelishuv asosida etkazib berishning huquqiy asoslarini mustahkamlandi. Shuningdek, Belarus Respublikasi Hukumati va O'zbekiston Respublikasi Hukumati o'rtaida imzolangan "Ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish va daromad hamda kapital soliqlarga nisbatan bo'yin tov lashni oldini olish to'g'risidagi shartnomma", Belarus Respublikasi Milliy banki va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'rtaida tuzilgan "Hisob-kitobni tashkil etish to'g'risida kelishuv", O'zbekiston Respublikasi hukumati va Belarus Respublikasi hukumati o'rtaida tuzilgan "Savdo-sotiqdan tashqari to'lovlar to'g'risida shartnomma" lar ikki davlat o'rtaidagi pul aylanma harakatlarini tartibga solinishiga, qo'shma korxonalarini, ekporter va importlarning faoliyatida va soliq va bojxona harakatlarini soddalashishiga xizmat qildi.

1991 yil 6 noyabrda Toshkentda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Belarus Respublikasi o'rtaida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risidagi shartnomaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi bilan Belarus Respublikasi o'rtaida ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha qo'shma hukumatlararo komissiya tuzish to'g'risida bitim imzolandi. [3] Ushbu hukumatlararo komissiya savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashdi. Hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini tahlil qildi, savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiruvchi vakolatli organlarga va qo'shma korxonalarga hamkorlikni rivojlantirish va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdi. Eng asosiysi, ushbu komissiya hukumatga iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishdagi optimal takliflarni taqdim etishi natijasida ikki davlat o'rtaida savdo-iqtisodiy munosabatlar yildan-yilga rivojlanib borishiga xizmat qildi.

1991-2000 yillarda ikki davlat o'rtaidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar muntazam olib borilgan bo'lib bu hamkorlik ikki davlatning savdo-iqtisodiy ko'rsatkichlarida muhim o'r'in tutdi. Buni quydagi jadval orqali izohlash mumkin.

*1991-2000 yillarda O'zbekiston va Belarus davlatlari o'rtaidagi o'zaro tovar aylanmasi[4]*

Davrlar	Savdo aylanmasi (mln. AQSH dollarlari)	Eksport (mln. AQSH dollarlari)	Import (mln. AQSH dollarlari)	Saldo (mln. AQSH dollarlari)
<b>1991</b>	11.3	5.1	6.2	-1.1
<b>1992</b>	37.5	15.2	22.3	-7.1
<b>1993</b>	36.9	19.7	17.2	+ 2.5
<b>1994</b>	33.2	16.9	16.3	+ 0.6
<b>1995</b>	41.3	18.7	22.6	-3.9
<b>1996</b>	43.7	19.4	24.3	-4.9
<b>1997</b>	44.3	15.3	28.9	- 13.6
<b>1998</b>	40.6	14.9	25.8	- 10.6
<b>1999</b>	39.8	13.9	25.9	- 12
<b>2000</b>	38.4	11.9	26.5	-14.6

O'zbekistonning Belarus bilan savdo aloqalarini rivojlanish dinamikasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ikki mamlakat o'rtaсидаги savdo aylanmasi 1995 yildan ko'tarilish kuzatiladi. Bunga asosiy sabab 1994 yil dekabr oyida Belarus Respublikasi Prezidentining O'zbekistonga tashrif. Tashrif natijasida ko'plab savdo shartnomalari, iqtisodiy hamkorlik bo'yicha qator bitimlar imzolangan. Aynan shu yildan boshlab 40 million AQSH dollaridan yuqoriga ko'tarilgan. 1991-2000 yillardagi ikki davlat o'rtaсидаги o'zaro savdo aylanmasining saldoсiga e'tibor qaratadigan bo'lsak u turlicha ko'rinish kasb etgan. 1991-1992 yillarda va 1995-2000 yillarda savdo aylanmasi O'zbekiston uchun salbiy saldo bilan yakunlangan. Bu davr oralig'iдағи eng yuqori salbiy sal'do 2000 yilda kuzatilgan, ya'ni - 14,6 million AQSH dollarini ko'rsatmoqda. O'zbekiston uchun ijobjiy saldo faqatgina 1993-1994 yillarda kuzatilgan. Bu ko'rsatkichning eng yuqorisi 1993 yilda + 2,5 million AQSH dollariga teng bo'lган. Buning asosiy sababi sifatida shuni ko'rsatish mumkinki, birinchidan O'zbekiston Belarusga qishloq xo'jaligi mahsulotlari, paxta xomashyosi va sanoat ishlataladigan metallar xomashyosini eksport qilgan. Belarus esa O'zbekistonga sanoat usulida to'liq qayta ishlanib, tayyor mahsulotlarni, oxir texnikalarni eksport qilgan.

Ikki mamlakat o'rtaсидаги savdo-sotiq munosabatlarda mahsulot yetkazib berish kelishuv shartnomalari asosida olib borilgan. Ikki davlat o'rta-sideda amalga oshirilgan eksport-import munosabatlarda o'tish davrida ikki davlatning ichki iste'mol, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlariga bo'lган ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilgan. Xususan, quydagi jadvalda 1991-2000 yillarda O'zbekiston va Belarus davlatlari o'rta-sideda savdo-iqtisodiy munosabatlarda quydagi mahsulotlar asosiy o'rin tutgan. [7]

Belarusdan O'zbekistonga eksport qilingan mahsulotlar.	O'zbekistondan Belarusga eksport qilingan mahsulotlar.
Yuk tashuvchi, maxsus (kran, yong'inga qarshi harakatlanuvchi, beton qoruvchi v.h.) transport vositalari va ularning maxsus ehtiyoj qismlari.	Transportga xizmat ko'rsatish
Dori-darmon va dorivor mahsulotlar, tibbiy jihozlar, plazma, preparat, filtrlangan qon.	Sabzavot va poliz mahsulotlari
O'simliklarni parvarishlovchi funkisidlar, girbitsidlar, dizenfeksiyalovchi vositalar.	Xo'l va quruq mevalar
Kimyoviy birikmalar (polimer, polietilin, poliester va poliasetlar)	Nektar va sharbatlar
Shina va pokrishkalar, butlovchi qismlari	Xlor, sulfat, karbonat
Yog'och va ishlov berilgan taxta, preslangan yog'och bo'laklari (dsp, dvp, mdf v.h), mebel jihozlar.	Paxta va yigirilgan paxta tolasi
Qurilishda foydalilaniladigan keramik plitalar.	Trikotaj mahsulotlari
Isitish pechlari, markaziy isitish qozonlari.	Tayyor kiyimlar
nasos va dvigatellar.	CHOyshablar
Muzlatgich va ishlab chiqarishda foydalilaniladigan	Mis lenta, plita, tola va quvrlar

## TARIX

sovitish vositalari.	
Elektr jihozlari, batareya, akumlyatorlar.	Izolyasiya qilingan simlar, kabellar va elektr o'tkazgichlar
	Transport xizmati

**4.Xulosalar:**

1991-2000 yillarda O'zbekiston va Belarus o'rtaida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishiga asosiy omil sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston va Belarusdagi sanoat korxonalari ishlab chiqariladigan mahsulotlarning homashyosi va ehtiyoq qisimlari ikki davlatning turli hududlarida ishlab chiqarilar edi. Toshkent qishloq ho'jaligi texnikalari zavodida ishlab chiqarilgan traktorlarning dvigatellari va boshqa ehtiyoq qisimlari Belarusning Minsk traktor zavodidan olib kelingan bo'lsa, Belarusning Bobruysk va Mogillev viloyatlardagi tekstil korxonalariga paxta tolasi va yigirilgan ip kalavalarni O'zbekiston tomonidan etkazib berilgan.

Ikkinchidan, O'sha davrda O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan qishloq xo'jaligi texnikalari va uning ehtiyoq qisimlari Belarusning Gomel va Minsk shahalrida traktor va qishloq xo'jaligi texnikalari zavodlaridan olib kelingan.

Uchinchidan, O'zbekiston ham Belarus ham mustaqillikning ilk yillaridagi o'tish davrida oziq-ovqat mahsulotlari etishmovchiliginı oldini olish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlarini o'zaro etkazib berish orqali bir-biriga ko'maklashgan. Xususan, O'zbekiston Belarusga 1991-1999 yillarda meva, sabzavot, poliz ekinlarini etkazib bergen bo'lsa, Belarus O'zbekistonga chorva mollari, tayyor va yarim tayyor go'sht mahsulotlari, kartoshka va sut mahsulotlarini etkazib bergen.

To'rtinchidan, ikki davlat ham o'zining ichki bozorini to'yintirish maqsadida yuk tashish, transport va tranzit xizmatlariga hamda bojxona va soliqqa tortish tizimlarida muntazam imtiyozlar qo'llagan.

Xulosa qilib aytganda 1991-2000 yillarda O'zbekiston va Belarus o'rtaida savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganligi ikki mamlakat o'rtaida hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishiga, tashqi iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning faol yo'lga qo'yishga xizmat qilgan. Shuningdek, 1991-2000 yillarda Belaruslik ishlab chiqaruvchilarning O'zbekiston iste'mol bozorining o'rganilganligi hamda faoliyat darajasini to'g'ri baholanishi natijasida keyingi o'n yillikda ham ikki mamlakat o'rtaida savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga va samarali bo'lishiga xizmat qildi.

**Iqtiboslar / Сноски / References:**

- ЎзР ТСИВ ЖА – Ўзбекистоннинг Беларусь билан савдо-иктисодий алоқалари тўғрисида ахборот. 2-вараж.
- Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг “Адолат” миллий ҳукуқий ахборот маркази давлат муассасаси. <https://lex.uz/docs/2590240>.
- Ўзбекистон Республикаси халқаро шартномалари тўплами, 2007 й., 2-3-сон <http://lex.uz/docs/1333487>.
- ЎзР МДА. М.115-фонд, 1- руйхат; 8- иш, 54-55-вараклар.
- ЎзР МДА. М.37-фонд, 1- руйхат; 1099- иш, 99-100-вараклар.
- ЎзР МДА. М.37-фонд, 1- руйхат; 1099- иш, 238 вараклар.
- Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси. Ўзбекистон Республикасини Беларусь Республикаси билан йиллар бўйича ташқи савдо айланмасига oid маълумот. 4 вараж.
- Isabaev, M. B. (2019). THE IMPORTANCE OF POLITICAL DECISIONS IN THE FIELD OF GOVERNANCE IN THE DEVELOPMENT OF STATEHOOD. Theoretical & Applied Science, (11), 624-629.
- Атаканов, Б. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ВА БЕЛАРУСЬ ДАВЛАТЛАРИНИНГ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(3).
- Ataxonov, B. (2019). ESTABLISHMENT AND PROSPECTS OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND BELARUS. Theoretical & Applied Science, (11), 636-640.
- Атаканов, Б. Т. (2015). ИККИ ПАЛАТАЛИ ПАРЛАМЕНТ ИНСТИТУТИНИ ШАКЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАРАҚҚИЙ ЭТГАН МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 58, pp. 62-64). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
- Oktyabrovich G. N. The Role of Trade Relations with China in the International Trade Relations of Central Asia //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 37-40.

(Taqrizchi: B.Usmanov – tarix fanlari doktori)